


Qoraqalpog'iston Respublikasida qurilish ishlari

(2020-yil yanvar-aprel)

2020-yilning yanvar-aprel oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasida jami **1048,3** mld. so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **85,8** % ni tashkil etdi.




Joriy davrda jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **87,2** mld. so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati **76,7** % bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **8,3** % ni tashkil etdi .

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi joriy davrda qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan keskin oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **78,1** % i to`g`ri kelib, shuningdek, ular hissasiga to`g`ri kelgan qurilish ishlari hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **93,5** % ni tashkil etgan holda **819,0** mld. so'm miqdorida qayd etildi.


Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari **13,6 %** ni tashkil etdi va **142,1** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. O'tgan yilning mos davridagi hajm bilan solishtirganda **62,3 %** ni tashkil etgani kuzatildi.

Tashkilot turlari bo'yicha qurilish ishlari




O'sish sur'ati % da

Jamiga nisbatan % da





**Davlat va nodavlat mulkchiligi shaklidagi tashkilotlar
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari**



○ Nodavlat mulk


○ Davlat mulki

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **56,8** mlrd. so'm yoki 2019-yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan **85,4 %** ga qurilish ishlari kamaygan, nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa **991,5** mlrd. so'm ishlar bajarilib, o'sish sur'ati **85,8 %** ni tashkil etdi. Ularning respublikadagi ulushlari mos ravishda **5,4 %** va **94,6 %** ni tashkil etdi.

Nodavlat mulk

991,5


mlrd. so'm




2020-yil
yanvar-aprel

Qurilish ishlari


Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruktsiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi.




Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo`yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining 65,2 % i yoki 683,7 mlrd. so`m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarini yaratishga qaratilgan.



Yirik qurilish tashkilotlari bo`yicha yangi qurilish hisobidan 35,0 mlrd. so`m ishlar bajarildi, yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 40,2 % tashkil etdi.



Kichik korxona va mikrofirmalar bo`yicha yangi qurilish hisobidan 511,7 mlrd. so`m, yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 62,4 % tashkil etdi.



Norasmiy sektor hissasiga 137,0 mlrd. so`m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 96,4 % ni tashkil etdi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2020-yil yanvar-aprel



66,3 %

Bino va inshootlar qurish
bo'yicha qurilish ishlari




695,2
mlrd. so'm



15,6 %

Fuqarolik obyektlarini qurish
bo'yicha qurilish ishlari




163,9
mlrd. so'm



18,1 %

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari



189,2
mlrd. so'm


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlaringin asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari

(ulushi % da)

2019-yil yanvar-aprel



2020-yil yanvar-aprel



Yirik qurilish
tashkilotlari



Kichik korxona va
mikrofirmalar



Norasmiy sektor

Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **3,7 %** ni tashkil etdi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to`g`ri kelgan ulush o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan **5,6 %** punktga ko`payib, **75,8 %** ni tashkil etdi.


Norasmiy sektoring ushbu faoliyatdagi ulushi **20,5 %** ni tashkil etib, o`tgan yilga nisbatan **6,3 %** ga kamayish kuzatiladi.




Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

(ulushi, % da)

2019-yil yanvar-aprel



2020-yil yanvar-aprel

Yirik qurilish
tashkilotlariKichik korxona va
mikrofirmalar


Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **14,0** % ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **8,1** % punktga kamaydi. Ushbu faoliyat turidan kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi **86,0** % ni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan **8,1** % punktga ko'paydi.




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

(ulushi % da)

2019-yil yanvar-aprel



2020-yil yanvar-aprel



Yirik qurilish tashkilotlari



Kichik korxona va mikrofirmalar

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **10,0 %** punktga kamaydi va **20,4 %** ni tashkil etdi. Qolgan **79,6 %** kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to`g`ri kelib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **10,0 %** punktga ko'paydi.

Korxonalar turlari bo'yicha qurilish ishlari

(2020-yil yanvar-aprel)

(mlrd. so'm)

	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan korxonalar turlari bo'yicha:		
		Yirik qurilish korxonalari	Kichik korxona va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1048,3	87,2	819,0	142,1
Nukus sh.	370,2	4,7	355,5	10,0
tumanlar:				0,0
Amudaryo	42,2	3,8	31,7	6,7
Beruniy	55,6		41,9	13,7
Bo'zotov	2,2	0,9	1,1	0,2
Qorao`zak	16,6	0,1	16,0	0,5
Kegeyli	27,8	6,1	16,7	5,0
Qo'ng'irot	97,9	40,7	47,5	9,7
Qonliko'l	26,7	0,0	18,8	7,9
Mo'ynoq	49,2	0,0	44,1	5,1
Nukus	61,9	0,3	37,5	24,1
Taxiatosh	44,5	14,7	25,9	3,9
Taxtako'pir	21,0	0,2	20,4	0,4
To'rtkul	99,5	0,6	70,1	28,8
Xo'jayli	48,2	10,2	29,1	8,9
Chimboy	19,6	2,1	15,3	2,2
Shumanoy	16,4	0,0	15,3	1,1
Ellikqal'a	48,8	2,8	32,1	13,9


Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari

(2020-yil yanvar-aprel)

(mlrd. so'm)

	Qurilish ishlari hajmi	O'sish sur`ati, %	Jamiga nisbatan ulushi, % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1048,3	85,8	100,0
Nukus sh. tumanlar:	370,2	83,2	35,3
Amudaryo	42,2	78,6	4,0
Beruniy	55,6	82,2	5,3
Bo'zotov	2,2	89,4	0,2
Qorao`zak	16,6	77,8	1,6
Kegeyli	27,8	96,8	2,7
Qo'ng'irot	97,9	78,1	9,3
Qonliko'l	26,7	99,5	2,5
Mo'ynoq	49,2	81,5	4,7
Nukus	61,9	99,8	5,9
Taxiatosh	44,5	89,9	4,2
Taxtako'pir	21,0	63,5	2,0
To'rtkul	99,5	99,7	9,5
Xo'jayli	48,2	82,6	4,6
Chimboy	19,6	95,9	1,9
Shumanoy	16,4	90,2	1,6
Ellikqal'a	48,8	99,0	4,7

Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari



Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi

Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi

Aloqa telefoni: (71) 230-82-13

(71) 230-82-14

(61) 222-75-91